

Nurli bunchalar yuzi, Porlab tur, «Tong yulduzi»!

Assalomu alaykum, qadrdon «Tong yulduzi» gazetasi-ning tahririyat a'zolari! Biz har yili butun sinfimiz bilan sevimli gazetamizga obuna bo'lamiz. Sahifalarida yoritilayotgan tengdoshlarimizning bir-biridan qiziq she'r-u hikoyalari o'qib, miriqamiz. Ulardan ilhomlanib men ham she'r, maqolalar yozib turaman.

Hamrohdir har bir ishda,
O'qiyimiz yoz-u qishda,
Qiziqdiansan-da o'zi,
Porlab tur, «Tong yulduzi»!

Sirdosh do'stim, dugonam,
Sen men uchun yagonam,
Nurli bunchalar yuzi,
Porlab tur, «Tong yulduzi»!

Qo'shiq kuylab baralla,
Aytamiz lapar, yalla,
O'zbegim o'g'il-qizi,
Porlab tur, «Tong yulduzi»!

Maroq bilan o'qiyimiz,
Senga she'rlar to'qiyimiz,
Layloning shunday so'zi:
Porlab tur, «Tong yulduzi»!

Laylo ESONMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
5-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

TAHRIRIYATDAN QO'NG'IROQ QILYAPMIZ

Chust mamlakatimizdagi ko'hna tarixga ega go'zal maskanlardan biri sanaladi. Bu yerdan yetishib chiqqan allomalarning dunyo tamadduni rivojiga qo'shgan hissasi katta davralarda hamisha e'tirof etib kelinadi.

Namangan viloyat, Chust tumani XTMFMTE bo'limi rahbari Bahodir Sotimov bilan qo'ng'iroqlashganimizda, bu go'shada ajdodlariga munosib vorislar yetishib chiqayotganiga yana bir bor amin bo'ldik.

– Tumanimizda 69 ta umumta'lim, 47 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 2 ta musiqa va san'at maktabi, 1 ta «Barkamol avlod» bolalar markazi va 1 ta Bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyat yuritmoqda, – deydi Bahodir aka.

– Biz o'quvchilarga yoshlari va qiziqishlariga qarab respublika bolalar nashrlarini tavsiya qilmoqdamiz. Tabiiyki, eng tezkor xabarchi hisoblanmish «Tong yulduzi»ga ularning qiziqishi balandligini ham e'tiborga olmoqdamiz.

Joriy yilda 5 nafar o'quvchimiz «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichi sovrindori bo'lishdi. Chust stol tennisi maktabi vakillari Boltiqbo'yi mamlakatida, 15-musiqa va san'at maktabi o'quvchilari Rossiyada bo'lib o'tgan xalqaro bellashuvda g'oliblar safidan joy olishdi.

Chustimizda ma'naviyat va ma'rifatga alohida e'tibor qaratilgani uchun kitobga, gazeta va jurnallarga qiziqish katta. 2017-yil obunasi doirasida bolalarning sevimli nashri «Tong yulduzi»ga yanada ko'proq obuna bo'lib, bu an'analarni bar davom bo'lishiga harakat qilamiz.

Bahodir akaning gurgundan ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Chustlik o'quvchilar bilan ijodiy hamkorlik qilishga esa hamisha tayyormiz.

Yusuf ABDULLAYEV yozib oldi



Aziz o'quvchilar! «TONG YULDUZI»

gazetasiga
2017-yil uchun obuna
mavsumi davom etmoqda!

Siz maktab kutubxonasi yoki uyingizga yaqin aloqa bo'limlarida obuna bo'lishingiz mumkin.

Nashr ko'rsatkichi -
198

ROZIYA «MUSTAHZOD» BILAN

BARCHANI LOL QOLDIRDI

Go'zal va hamisha navqiron Marg'ilon shahri haqida so'z ketganda har kim unga o'zgacha ta'rif beradi. Kimdir bu ko'hna kentni atlas-u adraslari bilan butun dunyoni maftun aylagan shahar, desa, yana kimdir allomalarga beshik bo'lgan yurt, deya e'zozlaydi.



8-ci Beynolxalq Ushaq Mugam Festivali

Quvonarlisi, Istiqlol yillarida Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahri butunlay o'zgacha qiyofa kasb etdi. Ayniqsa, bu go'shada kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berildi, bu o'z navbatida ular erishayotgan yutuqlarda aks etayotir.

Marg'ilon shahridagi 8-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Roziya Komiljonova ana shunday intiluvchan yoshlarimizdan. U tug'ilib o'sgan zamindagi muhit sababmi, yosh iste'dod egasi musiqani juda yaxshi ko'radi. Ayniqsa, marg'ilonlik mashhur hofiz bobosi Ma'murjon Uzoqovning qo'shiqlarini

kuylash uning jon-u dili. Qalbdagi ishtiyoq va havas, qolaversa, yuksak iste'dod yosh tengdoshingizni shahardagi 8-bolalar musiqa va san'at maktabi tomon yetakladi. Hozirda Roziya dutor va an'anaviy xonandalik bo'limida malakali ustozlar qo'l ostida musiqa sir-asrorlarini puxta o'rganmoqda.

Shu bugunga qadar, u respublika miqyosida o'tkazilgan turli

ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, ustozlari ishonchini oqlab kelayotir. Jumladan, yosh ijrochi 2015-yil «Kamalak» yulduzlari bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida faxrli 1-o'rinni, «Iftixor» nomli yoshlar taqdirlash marosimida esa «Yilning eng yaxshi yosh ijrochisi» nominatsiyasi g'olibligini qo'lga kiritdi. Qolaversa, tengdoshingiz «Yagonasan, muqaddas Vatan!» tanlovining respublika bosqichida 2-o'rinni egalladi.



Roziya Komiljonova yaqinda Ozarbayjonning Boku shahrida bo'lib o'tgan 8-xalqaro mug'om festivalida «Mustahzod» qo'shig'ini ijro etib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Tengdoshingiz hozirda «Bolajon»

– Ma'murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirovning qo'shiqlarini maroq bilan tinglayman. Ularning ashularini ijro etayotganimda, zimmamda katta mas'uliyat borligini his etaman, – deydi Roziya. – Ozarbayjonda o'tkazilgan

telekanali orqali efirga uzatilayotgan «Yulduzcha» bolalar televidio tanlovida ishtirok etmoqda. Biz Roziyaga barcha orzulari ushlishiga chin dildan tilakdoshmiz.

Sa'dullo TURSINOV

– Ta'lim maskanimizda o'quvchilarning bilim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Quvonarlisi, Roziya kabi yoshlarimiz o'zining iste'dodi, intilishi bilan biz ustozlar ishonchini oqlab kelishmoqda, – deydi 8-umumta'lim maktabi rahbari Iroda Mamajonova.

BESHARIQLIK YOSHLAR

birinchilar qatori «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishdi

Yaqinda go'zal vodiya safarimiz chog'i Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabida bo'ldi.



Tajribali pedagog Nargiza Yoqubova o'quvchilari bilan «Tong yulduzi»da e'lon qilingan yangi tanlov shartlarini o'rganishmoqda.

Shahloxon Roziqova rahbarlik qilayotgan ushbu ilm dargohida iste'dodli o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Fayoz Sherqo'ziyev, Jasur Rahimov, Pokiza Qurbonova, Husnida Qurbonova kabi iqtidorli o'quvchilar «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelishmoqda. 9-sinf o'quvchisi Sanjar Yigitaliyev «Huquq bilimdonlari»

tanlovining respublika bosqichida ishtirok etdi. 7-«G» sinf o'quvchisi Jahongir Isomidinov boks bo'yicha viloyat g'olibi bo'ldi. 5 – 6-sinf o'quvchilari esa «Quvnoq startlar»ning tuman bosqichida 3-o'rinni egallashdi.

Ularning erishayotgan yutuqlarida Shavkatjon Isomidinov, Nargiza Yoqubova, Shahnoza Xoliqova, Shoirax Boratliyeva kabi fidoyi ustozlarning xizmati katta bo'lmoqda.

Muloqotlar chog'i maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Mashhura Eryigitovadan o'quvchilarning badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanishi, respublika bolalar nashrlariga obunasi haqida ham so'radik.

– Kutubxonamizda bir yarim mingga yaqin badiiy adabiyot mavjud. Ular sonini yangi adabiyotlar bilan yanada boyitish harakatidamiz.

Yaxshi kitoblar qatorida o'quvchilar «Tong yulduzi» gazetasini ham sevib o'qishadi, – deydi suhbatga qo'shilgan kutubxonachi Dilshoda Xoliqova. – Xurshida Ortiqova, Nargiza Yoqubova, Nargiza Mo'minova, Jo'rabek Begmatov, Umidjon Aliyev rahbarligidagi sinf o'quvchilaridan 30 nafari bugungi kungacha sevimli gazetalariga 2017-yil uchun obuna bo'lishga ham ulgurishdi. Yil oxirigacha sinflar bo'yicha mushtariylar sonini bir necha barobarga oshirish niyatidamiz. Bu borada o'quvchilarning ota-onalari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqdamiz. Ularga bolalar nashrlari haqida batafsil ma'lumotlar berganimiz bois obuna bo'luvchilar soni oshib bormoqda.

Biz qisqa tashrifimiz chog'ida ta'lim muassasida iqtidorli o'quvchilarning ilgama chanoqliklari-yu ma'rifatga intilishlarini ko'rib, quvondik. Kelgusi yilda ham ularga bir-biridan chiroyli asarlarni tuhfa qilish niyatini dilimizga tugib, yangi umidlar bilan qo'shni maktabga yo'l oldik...

N. NAZAROVA

– Meni har yili dadam «Tong yulduzi» gazetasiga obuna qiladilar, – deydi 4-«A» sinf o'quvchisi Nilufar Yoqubova. – Ustozim Dilzoda G'ulomova, obuna boshlandi, deyishi bilan birinchilar qatorida obuna bo'lishga shoshilaman. Butun oilamiz bilan har bir sonini kuzatib boramiz. Yaqinda sevimli yozuvchim Xudoyberdi To'xtaboyevning «Tagob qishloq ertaklari» qissasini o'qib chiqdik. Bu asar hammamizga juda yoqdi.

Bizga maktub yo'llabsiz...

Dadajoningizni asrang



Qo'shnimizning o'g'li Akbar darvozadan chiqarkan: – Bormayman dedim-mi, bormayman, – deya tashqariga o'tildi.

– To'xta, hoy bola, qayoqqa?! – deya ortidan ergashgan otasiga parvo ham qilmadi.

Keksa ota kuyinib ancha joygacha o'g'lining ortidan bordi.

Qilichbek amakiga rahmim keldi. Dadamni esladim. Bizni dadajonim juda yaxshi ko'rardi. Onam, singlim va meni «Hayvonot bog'i»ga olib borardi. Yana bizni raqs to'garagiga bergandilar. «Raqs qizlarni ixcham, harakatchan qiladi», derdilar. Dadajonim kichkina yoshimda meni opichlab, ashula aytib yurganlari yodimga tushadi.

Yaqinda ular to'satdan vafot etdilar. Otasiz yashash juda qiyin ekan. Ularni eslamagan kunim yo'q. Suratlarini yonimda olib yuraman. Tez-tez tushlarimda ko'raman. Bobom, momom, amaki, tog'alarim juda ham mehribon kishilar. Lekin ularning hech biri dadamning o'rni bosolmaydi.

Dadasini ranjitib ketgan Akbardan xafa bo'ldim. Unga: – Dadang uzoq yashasinlar. Mening dadamga o'xshab hayotni erta tark etsalar, ularni qayerdan topasan? – degim keldi.

O'rtoqlaringizga esa: – Dadajonlaringiz, onajonlaringizning, umuman, atrofdagilarning o'ngliga ozor yetkazmang! Ularni asrang, – deyman.

Madinabonu UMRZOQOVA,

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumanidagi 91-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

«TONG YULDUZI» HAR BIRIMIZDA...

Hurmatli tahririyat ijodkorlari! Biz to'garak a'zolari sizning mehnatingizni kuza-tib boramiz hamda qadrlaymiz.

Biz ham sizlardek bo'lish uchun tinmayin izlanishda, harakatdamiz. Rango-rango sahifalarda berib borilayotgan yangiliklarga befarq emasmiz.

Har gal gazetaning yangi soni qo'limizga tushishi bilan o'zaro talashib qolardik. Chunki bor-yo'g'i bir donaga obuna bo'lgan edik-da.

Endi bunday noqulaylikni bartaraf etish uchun har birimiz o'z-o'zimizga obuna bo'lmoqchimiz.

Kamol ehtiram ila:

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Qaqnus» adabiyot va jurnalistika to'garagi a'zolari



UYIMIZDA KUTUBXONA BOR

Bizning oilada ham ma'rifatga alohida e'tibor berilishidan faxrlanamiz. Onam bilan dadam ilm sohiblari. Dadamning tibbiyot sohasida kitoblari va ko'plab maqolalari chop etilgan. Uyimizda o'zimizning kutubxonamiz bor. Unda adabiyot, tibbiyot, tilshunoslik, matematikaga oid ko'plab kitoblar mavjud. Bundan tashqari, buyuk alomamlarimizning qomusiy lug'atlari va ensiklopediyalar bor. Men ulardan ko'p foydalanaman. Kutubxonamizdan tanishlarimiz ham o'zlariga kerakli adabiyotlarni olib o'qib turishadi. Men bundan juda xursandman.

Muslima NUSRATULLAYEVA, poytaxtimizdagi 127-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

Bu kun qaysi bir oilaga qaramang, ota-onalar farzandlarini ilm-u ma'rifatga hamda sport bilan shug'ullanishga shart-sharoitlar yaratib beryaptilar.

DANG'ARALIK BILIMDONLAR

Shuningdek, vodiyning Dang'ara tumanidagi mehmondo'st insonlar Kamoljon aka va Morixonon aya Yo'lchiyevlar xonadonida bo'ldik. Va ularning nabiralari bilan yaqindan tanishdik.

Katta nabiralari Shahzodbek Kamolov tumandagi 5-umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qiyotgan ekan. U ta'lim olayotgan ilm dargohi haqida quyidagilarni so'zlab berdi:

– Sayyora Nazirova rahbarlik qilayotgan maktabimizda 700 ga yaqin o'quvchi tahsil oladi. Biz bu yerda fransuz va ingliz tillarini o'rganmoqdamiz. O'tgan o'quv yilida maktabdoshim Feruza Murodjonova fransuz tilidan fan olimpiadasida muvaffaqiyatli ishtirok etib, viloyat bosqichida 1-o'rinni, «Bilimlar bellashuvi»da 6-sinf o'quvchisi Nurjahan Mamedaliyev tarix fanidan viloyat bosqichida 1-o'ringa sazovor bo'lishdi. Shu sababli, ustozimiz Madina Ashurova «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi» nishoni bilan taqdirlandi. Kutubxonachi opamiz Rahimaxon Arslonova bizga o'qishimiz uchun eng qiziq kitoblarni tanlab beradilar.

Shahzodbekning ukasi va singlisi tumandagi 1-umumta'lim maktabi o'quvchilari. 5-«A» sinf o'quvchisi bo'lgan Shohjahon boshqa fanlar qatori matematika fanini juda yoqtirar ekan. Misol va masalalarning eng oson usullarni topib yechishga rosa qiziqadi. Shuningdek, u sportning boks turi bilan jiddiy shug'ullanmoqda. Boks murabbiyi Ergashali aka Tursunov shogirdining bu intilishidan juda mamnun.

Oilaning qizi Mohinur esa shu maktabning Zamiraxon Aliyeva rahbarlik qilayotgan 3-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan ekan. Tabiatan kamgap, bosiq bo'lgan qizaloq barcha fanlar qatori tasviriy san'atga, rasm chizishga juda qiziqadi. Bo'sh qoldi deguncha sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanadi. Bizga chizgan irod namunalardan ham ko'rsatdi.

Dang'aralik o'qishga ishtiyoqi baland, iqtidorli o'quvchilar bilan suhbatimiz maroqli kechdi. Suhbat asnosida aka-ukalarning kelajakda otanalari izidan borib, dorishunoslik kasbini egallamoqchi ekanliklarini ham bilib oldik va ularga bu yo'lda omad tiladik.

Suhbatdosh: Dilorom HOTAMOVA



Xizmat safari chog'ida Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani XTMFMTE bo'limi rahbari Sharifjon Shokirov bilan uchrashdik. Suhbat asnosida u kishi «Obuna – 2017» mavzusi bo'yicha ancha iliq fikrlar bildirdi.

– «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilarimizning sevimli nashrlaridan biri sanaladi, – deydi ustoz. – Bir necha o'n yillik tarixga ega bo'lgan bu gazetani biz ustozlar ham o'quvchilik davrimizda xo'p qiziqib o'qiganmiz. Bugungi kunda tumanimizda 66 ta umumta'lim maktabi, 47 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi va 23-sonli musiqa va sport maktabi faoliyat olib bormoqda.

O'quvchilarimizning aksariyati «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishadi. Biz pedagoglar yoshlar ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, bilim doirasini oshirish, ijodkorlikka o'rgatishda hamkorimiz bo'lgan mazkur nashrga obunachilar sonining o'tgan yilgidan-da ko'proq bo'lishiga astoydil harakat qilmoqdamiz.



Biz «Tong yulduzi» gazetasiga kelgusi yil uchun obuna bo'ldik. Siz-chi?!

NURLI LAHZALAR

yoxud ajoyib tadbir taassurotlari

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabida badiiy kechalar, tadbirlarni sermazmun va qiziqarli o'tishiga alohida e'tibor beriladi. Shu bois bo'lsa kerak, o'quvchilar bunday anjumanlarni uzoq vaqt eslab yuradilar.

Kutilganidek, kuni kecha mazkur maskanda bo'lib o'tgan adabiyot bayrami ham mehmonlar va o'quvchilarga o'zgacha zavq bag'ishladi. Bayram doirasida 5-6-sinflar «Kimning xati chiroyli?», 7-8-sinflar ijodiy bayon yozishib, 9-sinflar esa insholar tanlovida o'z bilimlarini bir qur sinovdan o'tkazgan edilar. Shuningdek, Adabiyot muzeyi, G'afur G'ulom, Oybek uy-muzeylarida bo'lib, maktabda olgan bilimlarini yanada mustahkamladilar. Bu sa'y-harakatlar doimgidek o'z samarasini berdi.

Bayram debochasi 5-sinf o'quvchilari «Tilshunoslik tilga kirganda» mavzusi bo'yicha ajoyib chiqishlar qildilar. Bu ishlarga bosh-qosh bo'lgan tajribali o'qituvchilardan Muyassar Hojiqulovning xizmatini alohida ta'kidlagan bo'lardik. Muhayyo Boymurodovanning shogirdlari o'rtasidagi «Bahri bayt» bellashuvi she'riyatning go'zal jozibasini yana bir bor namoyon etdi. Unda 6-«B» sinf o'quvchisi Kamola Asrayevaga teng keladigan topilmadi. 8-«A» dan Parizoda Toshmatova

Ona tili qiyofasida sahnaga chiqib, tilimizning beqiyos mo'jizalari bilan davra ahlini hayratga soldi. 8-«A» dan Iroda Ro'zmatova, 9-«A» dan Sabina Ismatova buyuk bobomiz Alisher Navoiy g'azallaridan namunalar o'qiganlarida, davraga ajib sokinlik cho'kdi. 9-«A» dan Umida Madaminbekova va Jamshid Ahmedov ijrosidagi Gul va Navoiy monolog g'azalxonlikka uyg'unlashib, ko'ngillarda ajib hislar uyg'otdi. Gul-asal Mardonova rahbarligidagi 7-«A» sinf qizlari Navoiyning «Lolazor» g'azalini kuyga solib ijro etganlarida, qo'shiq sadolari barchani birdek maftun etdi. 9-«V» sinf o'quvchisi Rayhona Abdumajidova mumtoz musiqaga xiroim etganida, maktab binosi qarsaklardan larzaga keldi. Tadbir nihoyasida maktabning «Birgalikda kuylaymiz» xor to'garagi a'zolari chiqishlari esa anjumanga alohida fayz bag'ishladi.



Izlanuvchan, katta tajribaga ega, bolalar uchun mehnat qilib charchamaydigan maktab rahbari Nasiba opa Mavlonova va ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mohin opa Omarovanning tadbirni zo'r qiziqish bilan tomosha qilishlari, shogirdlaridan-da ko'p hayajonlanayotganlarini kuzatish nihoyatda maroqli edi.

Yusuf ABDULLAYEV



IJODIY UCHRASHUV ZAVQI

Olmozor tumanidagi 249-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot bayrami doirasida tashkil etilgan tadbirda 22 nominatsiya bo'yicha tuman o'qituvchi va o'quvchilarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Gulnora Alimuhammedova (46-), Marg'uba Adilova (29-), Nodira Rashidova (278-), Umida Mirzayeva

G'OLIBLAR E'TIROF ETILDI

«Iqtidor egalari» tanlovida shu maktabning 9-«G» sinf o'quvchisi Mufazzal Abduvaliyeva 1-o'rinni egalladi. «Kim ko'p she'r biladi?» nominatsiyasi g'olibi uning sinfdoshi Anvar Halimov bo'ldi. Dilorom Zufarova rahbarlik qilayotgan bu sinfdagi ona tili va adabiyot faniga qiziquvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yutuqlar samarasi bois, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan fidokorona mehnatlari uchun 249-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot hamda o'zbek tili fani jamoasi faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

– Tumanimizdagi metod birlashma a'zolari ta'lim-tarbiyada, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda hamisha faol, – deydi tuman uslubchisi Shohida Hakimova. – Ayniqsa, Umida Mirzabekova (233-),

243-umumta'lim maktablari fan uyushmasi rahbarlari yil davomida faollikni qo'ldan berishmaydi. «Eng yaxshi dars ishlantmasi» tanlovi bo'yicha 106-, 191-, 219-umumta'lim maktabi o'qituvchilari g'olib bo'lishdi. Ularning ishlantmalarida dolzarb mavzular tanlanib, mukammal yoritib berilgan. «Eng yaxshi tadbir» tanlovida 29-, 133-, 243-umumta'lim maktabi o'qituvchilari sovrindor bo'lishdi. «Eng yaxshi ko'rgazmali qurol» nominatsiyasi 233-umumta'lim maktabining o'zbek tili fani metod birlashmasi a'zolariga nasib etdi. «Eng yaxshi reklama» nominatsiyasida esa 326-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Zilola Tilovova 1-o'rinni egalladi.

Uchtepa tumanidagi 197-umumta'lim maktabida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, taniqli shoir Shukur Qurbon bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda o'quvchilar tomonidan adabiyotning sirli olamiga doir qiziqarli fikrlar bildirilib, chiroyli she'rlar, sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Tadbir davomida Shukur Qurbon o'quvchilarni qiziqitirgan barcha savollarga atroflicha javob qaytardi. Ayniqsa, ijodkorning «Sog'inch darvozasi» nomli she'ri barcha yig'ilganlarga ma'qul bo'ldi. O'z navbatida, shoir tadbirda faol ishtirok etgan yoshlarga kitoblar sovg'a qildi.

Shuningdek, tumanidagi 109-umumta'lim maktabida o'ziga xos adabiyot bayrami bo'lib o'tdi. Tadbirda shahardagi maktablarda faoliyat olib borayotgan ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, uslubiy birlashma rahbarlari qatnashdi.

Kechada tilimiz softigini asrash yo'lida qilinishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan aytilgan takliflar barchaga manzur bo'ldi. O'quvchilar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar davraga o'zgacha fayz kiritdi.

Manzura UBAYDULLAYEVA



N. SULTONOV o'lgan surat

Nodira NAZAROVA, Jamoliddin ABDULLAYEV

Parts of speech

THE ADJECTIVE
(Sifat)

Shaxs yoki buyumning belgisini bildirgan so'zlar sifat deyiladi:

A young woman – yosh ayol

Sifatlar oddiy va yasama bo'ladi:

- a) Oddiy sifatlar qo'shimcha olmaydi: big – katta, short – kalta.
- b) Yasama sifatlarga old va orqa qo'shimchasini yoki har ikkalasini olgan sifatlar kiradi: natural – tabiiy, incorrect – noto'g'ri.

Eng ko'p tarqalgan sifat yasovchi qo'shimchalar:

- ful – useful = foydali
- less – helpless = ojiz
- ous – famous = mashhur
- al – formal = rasmiy
- able, -ible – eatable = yeb bo'ladigan

Eng ko'p tarqalgan old qo'shimchalar:


- un – unhappy = baxtsiz
- in – incomplete = tugallanmagan

Ikkita so'zdan yasali bitta ma'noni bildiruvchi sifatlar qo'shma sifatlari deyiladi:

dark-blue = to'q ko'k

Sifatning uchta darajasi bor: oddiy (the Positive Degree), qiyosiy (the Comparative Degree) va orttirma (the Superlative Degree).

The box A is small.
The box B is bigger than A.
The box C is the biggest between them.



Bir, ikki bo'g'inli sifatlarning qiyosiy darajasi -er qo'shimchasini qo'shish bilan, orttirma darajasi -est qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi:

Positive degree (Oddiy daraja)	Comparative degree (Qiyosiy daraja)	Superlative degree (Orttirma daraja)
cold – sovuq	colder – o'tkirroq	coldest – eng sovuq
deep – chuqur	deeper – chuqurroq	deepest – eng chuqur
clever – aqli	cleverer – aqliroq	cleverest – eng aqli
narrow – tor	narrower – torroq	narrowest – eng tor
noble – himmatli	nobler – himmatliroq	noblest – eng himmatli
polite – odobli	politer – odobliroq	politest – eng odobli
common – oddiy	commoner – oddiyroq	commonest – eng oddiy

HOMEWORK: Dear pupils learn the adjectives, make the sentences and send us!

Your teacher DINORA

WISE-MAN'S ANSWER
(Donishmandning javobi)



According to narrate, parents who had a child came to Ibn Sina.

– Please, give us advice about upbringing of our child, when he would be an adult so that he would be of use, – they asked.

– When was he born? – asked the great erudite.

– In the morning – answered the mother.

– What time is it? – he asked again.

– It is noon, – they answered. Ibn Sina answered them in this way:

– Oh, my dears, you were late. It was necessary to begin child's upbringing in that time, when he was in mother's stomach.

Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum under the Uzbek State World Languages University

WHAT? WHEN? WHERE?
(Nima? Qachon? Qayerda?)



Painter: SUMBULA

- What? – Nima?
- Who? – Kim?
- Which? – Qaysi?
- Where? – Qayerda?
- Whose? – Kimning?
- When? – Qachon?
- Why? – Nimaga?
- What time? – Soat necha bo'ldi?
- What colour? – Qanday rang?
- How often? – Qanchalik tez?
- How far? – Qanchalik uzoq?
- How? – Qanday?
- How much? How many? – Qancha ko'p?

For example: What time do you do your lessons every day?
Where is your pen?
Whose book is this?
How far is your school from home?

Kumush TURG'UNOVA,
the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

I LIKE MUSIC

Put the suitable one:

- Accordion – j
- Harmonica – a
- Piano – b
- Electric piano – c
- Drum – d
- Cymbals – e
- Saxophone – f
- Flute – g
- Clarinet – h
- Harp – i
- Electric guitar – j
- Cello – k
- Violin – l
- Guitar – m

Painter: YOQUBBEK

Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
the pupil of Republic radio and television collage



Buyuksan, Vatan!



Obod Vatanimsan, hur O'zbekiston,
Noming jahon ichra etmoqda parvoz.
Navqiron o'lkanan, gullagan bo'ston,
Madhing kuylamoqqa qancha ta'rif oz.

Sensan Amir Temur tug'ilgan qishloq,
Sensan Navoiyning ilm dargohi.
Sensan kaftimdagi bir parcha tuproq,
Sensan Beruniyning o'chmas chirog'i.

Ko'zim qarog'ida asrayin seni,
Yo'lingda fidodir doim jon-u tan.
Sendan-da ortiqroq suwayin neni,
Sen hammadan aziz, buyuksan, Vatan!

Mo'jizabonu G'ULOMJONOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
44-umumta'lim maktabining
7-«V» sinf o'quvchisi

Yer yuzida sensan yagona

Zamingda chiqqan maysadan,
Savlat to'kib turgan tog'gacha.
Faqat seni deymiz, jon Vatan,
Seni deya yongan zot qancha.

Quchog'ingda yayrab yursam ham,
Mehringni sog'inib qolaman.
Sendan bir zum yiroq ketsam gar,
Firoqingda unsiz yonaman.

Derlar oqar suvni qadri yo'q,
Bu naql biz uchun begona.
O'zbegim, men seni sevaman,
Yer yuzida sensan yagona.

Madinabonu HABIBULLAYEVA,
Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi
34-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi

QALBINGIZGA QUVONCH ULASHSIN

Bolalar ko'nglidan joy topib, ularning nurli olamida sayr etish baxti har kimga ham nasib etavermaydi. Bolalarning suyuqli shoiri Ravshan Isoqovning «Istiqlol ilhomlari», «Sohil ohanglari», «Bir qishloq bolalari», «Vatan vasfi» nomli she'riy to'plamlari hamda «Xo'jay-osh afsonasi», «Sinov» nomli rivoyat dostoni va «Sarbadorlar qissasi» nomli tarixiy dostoni chop etilgan. Uning ijodida Vatan vasfi, ota-onaga bo'lgan cheksiz muhabbat hamda tabiatga bo'lgan mehr tarannum etilgan. Shoir she'rlarini qog'ozga tushirayotganda, bolalikning beg'ubor dunyosini kashf etib, borliq bilan dillashishga tushadi.

Aziz o'quvchi! Biz ham ijodkor bobongizning quvnoch she'rlari sizning qalbingizga, albatta, quvnoch ulashishiga ishonamiz.

AXTAMQULI

Ravshan ISOQOV

GULLAR UFURI

Bugun sahar,
Men va Gavhar,
Tonggi toza havoda,
Ishlab tetik
Swular sepdik,
Esd i mayin shabboda.

Ukam Ortiq,
Boshdan tortib,
Keng hovlini supurdi,
Ko'p yoqimli,
Xo'p yoqimli
Gullar hidi ufurdi.



Oyijonim

Har kun ertalab,
Suyub, erkalab.
Sochlarim tarab,
Ortimdan qarab.
Kuzatar doim,
Bog'chamga oyim.

Eshikdan bo'ylab,
Ertamni o'ylab.
Sevinchdan yayrab,
Meh-la siylab.
Qarshilar doim,
Bog'chamdan oyim.



YO'LDA

Susaydi-ku yurishing,
Charchadingmi, ayt, qo'zim?
Qani, menga kelaqol,
Ko'tarib olay o'zim.

Charchamadim men hali,
Oyog'im toldi biroz.
Uni siz ko'tarsangiz,
Oyijon, bo'lardi soz.



Mehribonlik

Mushukvoy der sichqonga:
– Kim yetar sen chaqqonga?
O'zingga ehtiyot bo'l,
Tushib qolma qopqonga.

Men-ku horib, tolganman,
Biroz kuchdan qolganman.
Bugun ovga hushim yo'q,
Chunki to'yib olganman.

N. SHAYKATOVA chizgan rasmlar

To'ti va dur

(Ertak)

Qadim zamonda bir boyning Zulfizar ismli erkatoiy qizi bo'lgan ekan. Boy qayerga sa-farga borsa, qiziga antiqa durlar keltirishni kanda qilmas ekan. Bir kuni Zulfizar boshini yuvish uchun durini yechib yoniga qo'yibdi. Shu payt bir qush yonidagi durni ilib ol-gancha ko'kka uchibdi. Uning ortidan qarab tursa, jar yoqasidagi ulkan chinorga borib qo'nbidi. Zulfizarning gapiradigan to'tisi bor edi. U ko'pdan buyon tutqunlikda azob che-kardi. To'ti bekasiga:

– Durni olib kelsam, ozodlikka chiqaman-mi? – deb so'radi. Beka unga ozodlik va'da qilib, qafas eshigini ochdi. U shu zahoti jar yoqasidagi chinorga qarab uchdi. Daraxt-da g'ujg'on o'ynayotgan qushlarning biror

yoqqa ketishini ancha kutishga to'g'ri kel-di. Nihoyat, durni oldi. Uni olib ketar ekan, yarim yo'lda begona qushlar to'dasiga duch keldi. Ularning hujumiga bir iloj qilib chap berib, Zulfizarning yoniga oshiqdi. Durni ko'rgan beka avvaliga juda quvondi. Keyin esa yana to'tini qafasga qaytarish haqida o'ylay boshladi.

– To'tijon, sevimli durimni keltirganingdan juda xursand-man. Uni tumshug'ingda olib uchish oson bo'lmagani aniq. Qafasingga kirib biroz dam ol, keyin do'stlaring yoniga bor-san, – dedi uni qo'yib yuborgi-si kelmay.

To'ti ayrim odamlarning nay-ranglaridan xabardor edi. So'ng Zulfizarga o'zidek mulo-yimlik bilan:

– Chinor kovagida sizning duringizdan ham a'lo dur ko'rdim. Balki biror malikaning duridir. Oppoq dur o'rtasida olmos ko'z ham joylashgan. Avval sizning duringizni keltiray dedim. Ikkisini olsam og'irlik qilib, tushirib yuborardim. Istasangiz, biror qush ilib ket-masidan darhol uni Sizga keltiray, – dedi.

Olmos ko'zli dur Zulfizarning aql-hushini allaqachon o'g'irlagandi.

– Darrov ortingga qayt. Yana aytga-ningdek, boshqa bir qush unga egalik qilib quruq qolmaylik. Kelishingga bundan ham shirin yemaklar hozirlab qo'ygum, – dedi.

To'ti hiylasi ish berganidan xursand bo'lib ko'kka parvoz qilibdi va tezda do'stlari yoni-ga borib qo'shilibdi.

Hidoyat OLIMOVA

Shogirdlar yutug'idan FAXRLANAMIZ

Chaqqonlik, epchillik, chidamlilik va mustahkam iroda... Bu sifatlar sport bilan shug'ullandigan tengdoshlaringizga beriladi. Chunki tinimsiz mashq va mashg'ulotlar insonni har jihatdan toblaydi.



Bu yil O'zbekiston nomini, o'zbek sportchilari-ning shijoatini, matonatini butun dunyo tan oldi. Epchil va chapdast sportchilarning suyagi mamlakatimizda barpo etilgan sport maktablari-
«qotgan» aniq. Bugun sizlarga Surxondaryo viloyati-dagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyati haqida hikoya qilamiz. Maskandagi yaratilgan sharoitlar, sportchilarning erishayotgan yutuqlari va ularning orzu-umidlari haqida maktab rahbari, viloyat Gimnastika federatsiyasi ijrochi direktori, «Shuhrat» medali sohibi **Gulbahor opa AYNAZAROVA** bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

– Yurtimiz mustaqillikka erishgach,

xotin-qizlar sporti ni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Buning samarasi yurtimizning barcha hududlari, ayniqsa, qishloq joylarida zamonaviy va muhtasham sport majmualari qad rostlayotgani, u yerda qizlarimizning o'zlari istagan sport turi bilan muntazam



shug'ullanayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Viloyatimizda 2013-yil O'zbekiston gimnastika federatsiyasi Surxondaryo bo'limi o'z faoliyatini boshladi. Jumladan, viloyat

«2011-yil 22-aprel kuni Termiz shahrida «Barkamol avlod» sport musobaqasi Respublika bosqichi oldidan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan Gimnastika zalining taqdim etilishi bizga qanot bag'ishladi», deydi Gulbahor opa.

terma jamoasidan Go'zal Ismatova, Madina Alimardonova, Malika Djulnazarova, Iroda Jovliyeva, Nodira Ziyodqulova, Farida Ismatova, Sevara Almurodova, Rahima Abdurasulova, Sarvinoz Muhammadusupova, Umida Hasanova, Kamola Jamg'irova, Jasmina Amirqulova kabi sportchi qizlarimiz O'zbekiston chempionati, O'zbekiston Kubogi, «Baby CUP», «Xalq ta'limi sovrini uchun», «Happy Karavan», «Gimnastika barcha uchun», «Olimpiya umidlari» kabi turnirlarda ishtirok etib, g'olib va sovrindorlar safidan joy olishdi. Kelajakda bu qizlarimiz orasidan olimpiya chempionlari va sovrindorlari yetishib chiqishiga ishonamiz. Fidoiy murabbiylarimizdan Irina Umarova, Xadicha Mamado'stova, Marhabo Turdiyeva, Ruzana Garafutdinova, Gulbahor Amirovalar viloyatimizda badiiy gimnastikaning rivojlanishiga munosib hissasini qo'shishmoqda. Yana bir yangilik: 2016-yil viloyat Ma'daniyat va sport ishlari boshqarmasi tasarrufida Gimnastikaga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi

ochildi, ushbu maktabga iqtidorli gimnastikachi o'g'il-qizlarimiz tanlov asosida qabul qilindi. Bu bolalar kelgusida xalqaro musobaqalarda O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarishiga ishonamiz, ularning yutug'idan biz ham faxrlanamiz.

O'z navbatida, biz ham Surxon vohasi sportchi qizlariga omad va zafar yor bo'lishini tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

GIMNASTIKA BARCHA UCHUN

Sport respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalashda eng muhim omillardan biridir. Endilikda shahar va qishloqlarimizda yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun barcha shart-sharoit muhayyo.

O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Gimnastika federatsiyasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, Toshkent shahar hokimligi hamkorligida poytaxtimizda 14 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida «Gimnastika barcha uchun» shiori ostida sport festivali tashkillashtirildi.

Yakkasaroy tumanidagi 1-bolalar va o'smirlar sport maktabida tashkil etilgan mazkur tadbirda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar sport borasidagi imkoniyatlarini namoyish etishdi. Festival ishtirokchilarning nafis harakatlari barchani hayratga soldi.

Musobaqada Yashnobod tumanidagi 52-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internet tarbiyalanuvchilari g'olib bo'ldi. Turli nominatsiyalar bo'yicha ham g'oliblar aniqlanib, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar xalqaro jamoatchilik tomonidan yuksak baholalanayotgani ushbu festivalda o'z isbotini topdi.

Shukrulla G'ULOMOV

MAMLAKAT BOSQICHI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Buxoroda bo'lib o'tgan raketamodel sporti bo'yicha mamlakat kubogi musobaqasi ana shular jumlasidandir. Ushbu musobaqada «Vatanparvar» tashkilotining hududiy tizimlaridagi sport klublari sek-

Respublikamizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning texnikaga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va konstruktorlik mahoratini oshirishga ko'maklashish maqsadida turli musobaqalar tashkillashtirilmogda.

100 ga yaqin yoshlar ishtirok etishdi. Qatnashchilar o'zlari tayyorlagan qattiq qanotli, tasma bilan uchadigan, rotor yordamida parvoz qiladigan raketamodellari va raketamodel nusxalari, radioboshqaruvli raketa planerlarni uchirishda o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazdi.

Poytaxt vakillaridan Bilol Sattorov, Azim Domlajonov, namanganlik Nosir Abdurahimov, Farg'ona viloyatidan Valeriy Vardanyan, sirdaryolik Olga Ibragimova 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Umumjamoahisobida toshkentlik raketamodelchilar 1-, Namangan va Buxoro viloyatlari vakillari 2-va 3-o'rinni egaladi.

Zarnigor MUSAYEVA

Buxoroda «KAMOLOT» G'UNCHALARI Yurtimizda yoshlarni, ayniqsa, qizlarni sportga keng jalb etish maqsadida har yili an'anaviy tarzda 11-15 yoshli qizlar o'rtasida «Kamolot» g'unchalari musobaqasi o'tkazib kelinmoqda.

Buxoroda maktab o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tgan badiiy gimnastika bo'yicha «Kamolot» g'unchalari II respublika musobaqasi hududiy bosqichlarida qatnashgan qariyb 28,5 ming ishtirokchi orasidan saralangan 70 nafar qizlar mamlakat bosqichida g'oliblik uchun bellashdilar. Sportchi qizlarning halqa, tasma, koptokda mashq bajarishi hakamlar tomonidan texnik ijro va badiiylik mezonlari asosida adolatlil baholandi.

11, 14 va 15 yosh toifasidagi qizlar o'rtasidagi bahslarda poytaxtlik gimnastikachilardan Alina Vagizova, Aziza To'ychiyeva, Sevara Tursunova, 12 va 13 yoshli qizlar bahsida samarqandlik Mansura Abduq'aforova va Rayhon Mirsodiqova g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Shuningdek, musobaqada «Eng yaxshi kombinatsiya», «Sharq durdonasi», «Olimpiya umidlari», «Kichkina malika» kabi nominatsiyalar g'oliblari aniqlandi.


Ulug'bek SAIDOV

SINGLIMNING

«AJOYIB SOVG'A»SI

Bu voqea yaqinda sodir bo'ldi. Har galgidek yozgan ijodiy mashqlarimni ko'rsatish uchun tahririyatga yo'l oldim.

Singlimdan «Qaytishda senga nima olay?» deb so'rasam, shirin tili bilan: «Biron ajoyib sovg'a», dedi-yu, chopqillab uyga kirib ketdi. Boshqa bolalarga o'xshab konfet yoki biron o'yinchoq so'ramaganiga hayron bo'ldim. Shahardagi ishlarimni bitirgach, bozorga yo'l oldim. Ikki soat o'tdi hamki, biron antiqa narsaga ko'zim tushmadi. Kun botay deganda, uyga tarvuzi qo'ltig'idan tushgan odamday shumshayib kirib keldim. U so'ragan narsa nima ekanini o'zidan bilgach, keyin olib kelaman, degan maqsadda xonamga kirsam, singlim bir uyum kitoblar ichida uxlab qolibdi. Murg'ak qalbida kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'lganiga hayron edim. Ana shu voqeadan so'ng ijodxonamdan yana bir kichkina kursicha joy oldi. Men she'r mashq qilganimda, u bir-biridan ajoyib rasmlar chizadi. Singlim endi bu xona uning ijod qiladigan joyi, kitoblar esa yaqin do'sti ekanligidan quvonib, ko'zlarida quvonch porlardi.



Durdona YO'LDOSHEVA,
Toshkent viloyatidagi
Parkent pedagogika
va iqtisodiyot kolleji
o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Vodiydagi shahar	Samar ... (shoira)	Ekran san'ati	Suvsevar don	Musiqayozi
Yozuv qatori	Xat, maktub	Telekanal	Bahorgull	Payt, subhidam
Mark ... (adib)	Tarihiy shahar	Qon tomi	O'g'irning yana bir nomi	Ko'rkam qush
Inert gaz	Suv bilan o'ralgan quruqlik	Gaz modda	Kaspiy bo'yidagi poytaxt	Kichik sandiqcha
Adabiy janr	Peru poytaxti	Fran-suz bastakori	Qizlar ismi	Qo'yning bo'jasi

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Kuzda

BARGLAR

BU AJIB DUNYO!

NEGA SARG'AYADI?

Yur-timimizda oltin kuz faslining xazonrezi kunlari davom etmoqda. Daraxt barglari turli rangda toylanib, yerga duv-duv to'kilganicha ajib manzara hosil qillmoqda.

Xo'sh, nima sababdan barglar rangi bunday o'zgaradi? Fanga ma'lumki, yaproqlarning yashilligi xlorofill donachasi tufayli. Aynan uning ta'sirida har bir barg ozuqa ishlab chiqaradi, shuningdek, rangning uchdan ikki hissasi (pigmentatsiyasi) ulardagi xlorofill miqdoriga bog'liq. Barglarda boshqa ranglar ham bor, lekin uning

miqdori oz yoki ko'pligidan ko'z deyarli ilg'amaydi. Xo'sh, bu qanday ranglar?

Masalan, uglerod, vodorod va kislorodda hosil bo'lgan «ksantofil» moddasi sariq rangga ega. U bargni 23 foiz pigmentatsiyalaydi. Sabziga o'ziga xos rang bag'ishlaydigan «karotin» pigmenti bargda 10 foizni tashkil etadi. Shuningdek, «antotsianin» pigmenti zarang va qizil eman barglariga qizg'ish tus beradi.

Yozning issiq kunlarida bu pigmentlar ko'zga ko'rinmaydi, biz faqat yashil xlorofillarnigina ko'ramiz. Sovuq boshlanishi bilan barglarda to'plangan ozuqa moddalar daraxtlarning shox va butoqlari hamda tanasiga o'tadi. Qishda daraxtlar oziqlantiruvchi moddani ishlab chiqarishni to'xtatgach, xlorofillning ham barglarga ta'siri tugaydi. Xlorofill yo'qolgach, barg tarkibida bo'lgan boshqa pigmentlar ko'rinda boshlaydi va daraxtlar xilma-xil ranglarda go'zal jilolanadi.



Gulchehra MUHAMMADJON tayyorladi

QIZIQARLI MATEMATIKA

2 ta tovuq ikki kunda 2 ta tuxum qo'yadi. 100 ta tovuq 100 ta tuxumni necha kunda qo'yishi mumkin?



1 dan 8 gacha bo'lgan sonlar 4 tadan qilib 2 ta qutiga solindi. Har ikkala qutidagi sonlar yig'indisi bir-biriga teng. Agar birinchi qutida 1 va 3 sonlari bo'lsa, qolgan ikki sonni toping.



Har kuni ertalab soat 9:00 da Yevropa portidan Amerika porti tomon 1 ta kema yo'lga chiqadi. Xuddi shu vaqtda qarama-qarshi yo'nalish - Amerikadan Yevropa tomon ham 1 ta kema yo'lga chiqadi. Kemalar okeanni roppa-rosa 7 kunda bosib o'tadi. Amerikadan yo'lga chiqqan kema yo'lda Yevropadan kelayotgan nechta kemani uchratadi?

Mohinur ALLASHUKUROVA,
Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 24-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir G'ANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Jamoliddin ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 25500
Buyurtma - S 7423

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08